



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING SANITARIYA QOIDALARI
VA ME’YORLARI, GIGIYENA NORMATIVLARI**

**DAFN JOYLARI (QABRISTONLAR)NI
JOYLASHTIRISH VA SAQLASHGA QO‘YILADIGAN GIGIYENIK
TALABLAR**

**O‘zbekiston Respublikasining
0298-11- sonli SanQvaM**

Rasmiy nashr

Toshkent – 2011



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING SANITARIYA QOIDALARI VA ME’YORLARI, GIGIYENA NORMATIVLARI

«TASDIQLAYMAN»
O‘zbekiston Respublikasining Davlat
bosh sanitariya vrachi
_____ **S.S. SAIDALIYEV**
29-avgust 2011-yil

DAFN JOYLARI (QABRISTONLAR)NI JOYLASHTIRISH VA SAQLASHGA QO‘YILADIGAN GIGIYENIK TALABLAR

O‘zbekiston Respublikasining
0298-11-sonli SanQvaM

Rasmiy nashr

Toshkent – 2011

Ushbu sanitariya qoidalari va me'yorlari O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi Davlat sanitariya-epidemiologiya nazorati markazlarining kommunal gigiyena shifokorlari, Arxitektura va qurilish qo'mitasining ixtisoslashtirilgan loyiha muassasalari arxitektorlari, shahar va qishloq qabristonlarini loyihalash, qurish va ulardan foydalanish bilan shug'ullanuvchi texnik xodimlar uchun mo'ljallangan. Ushbu sanitariya qoidalari va me'yorlari kuchga kirgandan so'ng O'zR SanQvaN N 0268-09 o'z kuchini yo'qotadi.

1. UMUMIY QOIDALAR

1.1. Ushbu sanitariya qoidalari va me'yorlari (bundan buyon sanitariya qoidalari deb yuritiladi) O'zbekiston Respublikasining 2010-yil 27-dekabrda O'RQ-276-sonli "Dafn etish va dafn ishi to'g'risida"gi Qonuniga, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009-yil 22-yanvardagi PQ-1045-sonli "O'zbekiston Respublikasi aholi punktlarini obodonlashtirishni yaxshilashga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qaroriga va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2009-yil 9-martdagi 59-sonli "Zamonaviy arxitektura-shaharsozlik talablarini inobatga olgan holda aholi punktlarini obodonlashtirish ishlarini tashkil etish qoidalarini tasdiqlash to'g'risida"gi, 2009-yil 1-apreldagi 91-sonli "Obodonlashtirish xodimlarini moddiy rag'batlantirishni kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlariga muvofiq ishlab chiqilgan bo'lib, O'zbekiston Respublikasi hududidagi dafn etish joylarini (bundan buyon qabriston deb yuritiladi) saqlash va ulardan foydalanish tartibini belgilaydi.

1.2. O'zbekiston Respublikasining butun hududidagi qabristonlarni saqlash va ulardan foydalanish mintaqalar mahalliy aholisining, shuningdek boshqa millat va elatlarning sanitariya qoidalari hamda boshqa me'yorlarga zid bo'lmagan mavjud an'analari, urf-odatlar va marosimlari asosida amalga oshiriladi.

1.3. Alohida hollarda har bir diniy konfessiya uchastkalarining chegaralari qat'iy belgilangan holda kompleks, ko'p konfessiyali qabristonlarni ochish va ulardan foydalanishga ruxsat beriladi.

1.4. Qabristonlarni saqlash va ulardan foydalanish ekologik me'yorlar, sanitariya, shaharsozlik qoidalari hamda boshqa me'yor va qoidalarga muvofiq amalga oshiriladi.

1.5. Qabristonlar shahar va tumanlar davlat hokimiyati organlarining, shaharlar va tumanlar obodonlashtirish boshqarmalarining bevosita tasarrufida bo'lib, ularni tegishli holatda saqlash va ulardan foydalanish ushbu organlarning majburiyatiga kiradi. Shu maqsadda shaharlar va tumanlar obodonlashtirish bosh boshqarmalari, boshqarmalari va bo'limlari tarkibida qabristonlarni saqlash va ulardan foydalanish bo'yicha boshqarmalar va bo'limlar tashkil etiladi.

1.6. Qabristonning asosiy kirish joyida (ichki tomondan) ma'muriy va boshqa binolar, yo'llar, xiyobonlar, tarixiy va xotira qabrlari, jamoat hojatxonalari hamda boshqa obyektlarning joylashuvi ko'rsatilgan qabristonning sxematik rejasi o'rnatilishi lozim. Shuningdek, qabristonlarni saqlash va ulardan foydalanish bo'limi (boshqarmasi), qabriston ma'muriyati haqidagi ma'lumotlar, ularning manzillari va aloqa raqamlari ko'rsatilgan bo'lishi kerak.

2. QABRISTON UCHUN MAYDON AJRATISH VA UNI TASHKIL ETISH

2.1. Yangi qabristonlar qurish uchun maydon tanlash, uni tashkil etish, loyiha hujjatlarini ishlab chiqish va mavjud qabristonlarni qayta qurish mahalliy Davlat sanitariya-epidemiologiya nazorati markazlari bilan kelishilgan holda amalga oshiriladi.

2.2. Shahar va qishloq an'anaviy qabristonlari aholi yashaydigan hududdan tashqarida, baland, shamol yaxshi esadigan, quruq g'ovak (qumli, qumloq, kuchsiz loyli) tuproqli va yer osti suvlari chuqur joylashgan (qabr tubidan kamida 0,5 m pastda bo'lishi shart) maydonlarda joylashtirilishi kerak. Ular shahar va qishloqdan, shuningdek ochiq suv havzalari va suv ta'minoti manbalaridan qarama-qarshi tomonga 0,5-5% gacha qiyalikda bo'lishi lozim.

Tog'li va tog'oldi hududlarda 30% gacha qiyalikka ruxsat etiladi, bunda albatta terrasalar va 5% gacha qiyalikdagi yo'llar qurilishi shart. Tabiiy qiyalik bo'lmagan hollarda suvni chiqarib yuborish va tuproqni ortiqcha namlanishdan saqlashni ta'minlaydigan vertikal tekislash o'tkazilishi lozim. Zarurat tug'ilganda, lotoklar, ariqchalar qurish, quvurlar yotqizish va boshqa muhandislik-texnik inshootlarni barpo etishni ko'zda tutish kerak.

Qabristonlar uchun suv bosadigan yoki ko'chki yoxud o'pirilish xavfi mavjud bo'lgan joylarni ajratish man etiladi. Zarur hollarda tayanch devorlar qurish, jarliklarni mustahkamlash, qiyaliklarni tekislash va ko'kalamzorlashtirish choralarini ko'rish lozim.

2.3. Qabriston uchun ajratiladigan hududdagi yer osti suvlari eng yuqori holatida ham yer yuzasidan kamida 2 metr chuqurlikda joylashgan bo'lishi kerak. Ushbu talabga javob beradigan joylar bo'lmagan taqdirda, qabriston uchun ajratiladigan hudud vertikal yoki gorizontaal drenaj tizimi o'rnatish orqali quritilishi lozim.

2.4. Quyidagi joylarda qabristonlar barpo etish taqiqlanadi:

suv quvurlari, suv ta'minoti manbalari, mineral suv manbalari qurilmalarining sanitariya muhofazasi zonalarining birinchi va ikkinchi mintaqalari, kurortlarning birinchi va ikkinchi muhofaza zonalarini, qo'riqlanadigan tabiiy hududlar, dam olish zonalarini hududida hamda madaniy meros obyektlari (arxeologiya yodgorliklari) va ularning muhofaza zonalarini joylashgan hududlarda;

kuchli yorilgan tog' jinslarining yer yuzasiga chiqish joylari va suvli qatlamlarning sinish nuqtalarida;

aholi xo'jalik-maishiy ehtiyojlari va dam olish maqsadlarida foydalanaydigan dengiz, ko'l, daryo va boshqa ochiq suv havzalari qirg'oqlarida. Qabriston uchun daryolarga yaqin joy tanlangan hollarda, uni daryo oqimi bo'ylab aholi punktidan pastroqqa joylashtirish lozim.

2.5. Qabriston qurilishi uchun ajratiladigan yer maydonini hisoblash ushbu qabriston xizmat ko'rsatadigan har 1000 kishiga 0,24 gektar hisobidan amalga oshiriladi. Qabristondan foydalanishning hisobiy muddati "Shaharsozlik, shahar va qishloq aholi punktlari hududlarini rivojlantirish va qurishni rejalashtirish" Qurilish me'yorlari va qoidalariga (SHNQ 2.07.01-03) muvofiq kamida 20 yil bo'lishi kerak.

2.6. Qabriston maydoni quyidagicha taqsimlanishi lozim:

dafn etish joylari - 75-80%;

ko'kalamzorlashtirish - 15-20%;

xiyobonlar, yo'llar va so'qmoqlar - 5-8%;

xo'jalik hovlilari, ma'muriy binolar, yordamchi inshootlar - 2-3%.

2.7. Dafn etish bilan bog'liq diniy marosimlarni o'tkazish uchun qabristonlarni diniy maqsadiga ko'ra tegishli ibodat inshootlari (masjid, cherkov, sinagoga va boshqalar) bilan birlashtirish tavsiya etiladi.

2.8. Turar joy va jamoat binolari devorlaridan hamda dam olish zonalaridan qabristonlargacha bo'lgan masofa SHNQ 2.07.01-03 va "O'zbekiston aholi punktlarini rejalashtirish va qurishning sanitariya qoidalari va normalari"ga (O'zR SanQvaN № 0227-07) muvofiq 100 metrdan kam bo'lmasligi kerak.

Suv ta'minoti manbai quduqlar, kaptajlar va boshqa qurilmalar bo'lgan markazlashmagan xo'jalik-ichimlik suv ta'minotiga ega aholi punktlarida, qabriston ushbu manbalarni ta'minlovchi yer osti suvlari oqimidan yuqorida joylashgan taqdirda, sanitariya-gigiyena jihatidan asoslangan holda sanitariya-himoya zonasi (SHZ) o'lchami 500 metrgacha kengaytirilishi mumkin.

2.9. Maydoni 20 gektardan 40 gektargacha bo'lgan yangi ochilayotgan aralash va an'anaviy dafn etish qabristonlari uchun SHZ 500 metr, 20 gektardan kam bo'lsa - 300 metr bo'lishi lozim. Qishloq qabristonlari (1000 xonadondan kam bo'lgan aholi punktlari uchun) va kolumbariylar (devordagi maxsus joylarga kul ko'mish) aholi yashaydigan joydan kamida 50 metr uzoqlikda joylashishi kerak.

Yopiq qabristonlar va krematsiyadan so'ng dafn etiladigan qabristonlardan SHZ 100 metr bo'lishi lozim. Qabriston yopilgandan so'ng, ba'zi hollarda, qabriston va aholi punkti o'rtasidagi SHZ Davlat sanitariya-epidemiologiya nazorati markazlari bilan kelishilgan holda 50 metrgacha qisqartirilishi mumkin.

Aholining qabristonga kelishini qiyinlashtirmaslik uchun qabristonni aholi yashaydigan joydan juda uzoqda (0,5 soatdan ortiq transport vaqti talab qilinadigan masofada) joylashtirmaslik kerak.

2.10. Qabriston chegaralarini kengaytirishda qurilmalar mavjud bo'lgan joylarda SHZni qisqartirishga yo'l qo'yiladi, biroq bu qisqartirish 25 foizdan oshmasligi kerak.

2.11. Qabriston shahar yoki qishloq aholi punkti bilan qulay aloqaga ega bo'lishi lozim (obodonlashtirilgan yo'llar, rivojlangan yo'lovchi tashish xizmati).

2.12. Qabriston hududida mexanizatsiya vositalari, inventar va shu kabilarni saqlash uchun alohida kirish yo'li va loyiha topshirig'iga muvofiq maydonga ega bo'lgan xo'jalik hovlisini rejalashtirish zarur.

2.13. Qabriston kirish qismida gulxona-do'konlar, dafn marosimlari uchun zarur buyumlar sotiladigan do'konlar, ma'muriy bino va jamoat hojatxonasi joylashtiriladi. Qabriston oldida avtotransport to'xtash maydoni tashkil etilishi lozim.

2.14. Qabriston hududi albatta o'rab chiqiladi, turli muddatlarda o'zlashtirilishi kerak bo'lgan alohida rejaviy uchastkalarga bo'linadi, yo'llar, so'qmoqlar va sug'orish suv quvurlari o'tkaziladi. Shu yerning o'zida murdalarni vaqtincha saqlash uchun bino ham quriladi.

2.15. Qabriston hududidan umumshahar (qishloq) markazlashtirilgan xo‘jalik-ichimlik suv quvuri tarmog‘ini o‘tkazish taqiqlanadi. Shu bilan birga, qabriston hududining suv ta‘minoti tashrif buyuruvchilar va xizmat ko‘rsatuvchi xodimlarning ichimlik suviga bo‘lgan ehtiyojlarini, shuningdek, yashil maydonlarni sug‘orish uchun suv bilan to‘liq ta‘minlashi kerak.

2.16. Qabriston hududidagi ko‘kalamzorlar quyosh nuri va tuproq shamollatilishiga xalaqit bermasligi uchun haddan ziyod qalin bo‘lmasligi lozim (yer yuzasidan shamollatiluvchi tuzilishdagi daraxt va buta ko‘chatlari - 0,6-0,7 m zichlikdagi nafis shox-shabbali) hamda qabriston perimetri bo‘ylab himoya ko‘chatlari va asosiy xiyobonlar hamda dafn etish joylari bo‘ylab manzarali ko‘chatlardan iborat bo‘lishi kerak (mevali daraxtlar ekish taqiqlanadi).

3. DAFN ETISH TARTIBI VA MURDALARNI TASHISH

3.1. Bir marhumni dafn etish uchun mo‘ljallangan qabr maydoni kattalar uchun 5 m², 10 yoshgacha bo‘lgan bolalar uchun esa 2 m² gacha bo‘ladi. Qabrlar orasidagi masofa uzun tomoni bo‘yicha kamida 1 m, qisqa tomoni bo‘yicha esa kamida 0,5 m bo‘lishi lozim.

3.2. Kattalar uchun qabr chuqurligi kamida 1,5 m, uzunligi kamida 2 m va kengligi 1 m gacha bo‘lishi kerak. Bolalarni dafn etishda bu o‘lchamlar kichikroq bo‘lishi mumkin. Qabr usti tepaligining balandligi yer yuzasidan kamida 0,5 m bo‘lishi, bunda u yer usti suvlari kirishidan himoya qilish uchun qabr chetlaridan tashqariga chiqib turishi lozim.

3.3. Marhumni "o‘tirgan" holatda dafn etishda tuproq qatlami 1 metrgacha (qabr usti tepaligi bilan birga) oshiriladi.

3.4. Qabriston hududida krematoriy qurilganda (yirik va katta shaharlarda) kul solingan urnalarni ko‘mish joylari maxsus tokchalarda yoki yerda ko‘zda tutiladi. Bunda tokchalar uchun 1,2 m², yerda esa 2-3 m² hisoblanadi.

3.5. Krematoriy binosi oldida gullar, manzarali daraxtlar va butalar o‘tqazilgan park yoki bog‘, shuningdek avtomobil to‘xtash joyi rejalashtiriladi.

3.6. Davlat sanitariya-epidemiologiya nazorati organlari bilan kelishilgan holda, faqat alohida hollarda, zarur qoidalarga rioya qilgan holda umumiy qabrlarda dafn etishga ruxsat beriladi:

umumiy qabrlarning chuqurligi (ikki qator qilib dafn etilganda) kamida 2,5 m bo‘lishi kerak;

qatordagi tobutlar orasidagi masofa kamida 0,5 m bo‘lishi lozim;

yuqori qatordagi tobutlar pastki qatordagilardan kamida 0,5 m yuqorida joylashishi kerak;

yuqori qatordagi tobutlar pastki qatordagi tobutlar oralig‘idan yuqorida joylashtiriladi.

3.7. Dafn etishni amalga oshirish uchun mahalliy (shahar, qishloq yoki tuman) Fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish (FHDYo) byurosining tegishli hujjatlarini taqdim etish talab qilinadi.

3.8. Marhumlarni dafn etish joyiga olib borish tobutlarda yoki "tobut" deb ataladigan maxsus zambillarda amalga oshiriladi.

3.9. Patologoanatomik bo'limdan uyga olib borish zarur bo'lganda (qarindoshlari va yaqinlari bilan vidolashish uchun), jasadlarni oldindan balzamlash (formalin, spirt, boshqa balzamlovchi vositalar yordamida) va sovitish lozim.

3.10. Jasadlarni dafn etish joyiga keyingi tashishda namlikni yaxshi shimuvchi (gigroskopik) materiallardan foydalanish kerak. Buning uchun tobut tubiga quruq qipiq, mayda qirindi va shunga o'xshash narsalar qo'yiladi.

3.11. O'ta xavfli yuqumli kasalliklardan (o'lat, vabo, tulyaremiya, kuydirgi, gemorragik isitma va boshqalar) vafot etganlarni dafn etish tartibi O'zR SSV tomonidan 10.07.2009-yilda tasdiqlangan "O'lat, vabo, boshqa karantin va o'ta xavfli yuqumli kasalliklardan vafot etgan yoki shu kasalliklarga shubha qilingan odamlarning jasadlarini dafn etishda birlamchi chora-tadbirlarni o'tkazish bo'yicha yo'riqnoma" bilan belgilanadi.

3.12. O'ta xavfli yuqumli kasalliklardan vafot etganlarning tobutini qarindoshlari va yaqinlari bilan vidolashish uchun ochishga ruxsat berilmaydi. O'ta xavfli yuqumli kasalliklardan o'lganlarning jasadlarini qayta ko'mish taqiqlanadi.

3.13. Vafot etganlarning jasadlarini bir aholi punktidan (o'lim sodir bo'lgan joydan) boshqasiga olib borish zarur bo'lgan hollarda istalgan transport vositasidan (temir yo'l, havo, avtomobil transporti) foydalanish mumkin. Biroq buning uchun o'lim sodir bo'lgan joydagi sanitariya-epidemiologiya xizmati mahalliy organlarining majburiy ruxsatnomasi talab etiladi. Ushbu ruxsatnoma o'lim faktini aniqlagan davolash-profilaktika muassasasining o'lim sababi ko'rsatilgan xulosasi asosida beriladi.

3.14. Marhumni temir yo'l, havo yoki avtotransportda tashish yuk bo'limida amalga oshiriladi. Bunda marhum germetik kavsharlangan ruxlangan tobutga joylashtiriladi va tobutning ichiga namlikni yutuvchi vositalar qo'yiladi. Ruxlangan tobut esa pishiq qilib yasalgan yog'och qutiga joylashtiriladi.

3.15. Jasadni eksyumatsiya qilishga dafn etilgandan keyin 1 yil o'tgach ruxsat beriladi. Dafn etilganidan keyin 1 yil ichida jasadni eksyumatsiya qilish uchun prokuratura organlarining maxsus qarori talab etiladi. Zarurat tug'ilganda eksyumatsiyani yilning istalgan faslida o'tkazish mumkin.

3.16. Boshqa hollarda eksyumatsiyani yilning sovuq faslida, kunning yorug' vaqtida o'tkazish maqsadga muvofiq. Bunda kommunal xo'jalik xodimlari, militsiya va mahalliy Davlat sanitariya-epidemiologiya nazorati vakillari ishtirok etishi lozim.

3.17. Jasad qoldiqlari qazib olingandan so'ng, qabr zudlik bilan ko'milishi va yer yuzi tekislanishi shart.

3.18. Vafot etganlarning qoldiqlarini qayta ko'mish uchun birodarlik qabridan olish taqiqlanadi. Faqat istisno hollardagina mahalliy hokimiyat va sanitariya-epidemiologiya xizmati organlari bilan kelishilgan holda umumiy qabrga dafn etilgan barcha jasadlarning qoldiqlarini qayta ko'mish uchun chiqarib olishga ruxsat beriladi.

3.19. Vafot etgan kishining jasadini qayta ko'mishga qumloq va kuchsiz loyli tuproqlarda dafn etilgan vaqtdan boshlab kamida 1 yil o'tgach, nam loyli tuproqlarda esa kamida 3 yil o'tgach ruxsat etiladi. Chunki bunday tuproqlarda chirish, minerallashish va zararsizlantirish jarayonlari sekinroq kechadi.

3.20. Sanitariya-epidemiologiya xizmati organlari jasadni ekskumatsiya qilish, uni boshqa dafn etish joyiga ko'chirishga ruxsat beruvchi tegishli hujjatlar va tibbiy muassasaning ekskumatsiya qilinuvchining o'limi sababi to'g'risidagi ma'lumotnomasi taqdim etilganda, mazkur joydagi epidemiologik va epizootik vaziyatni hisobga olgan holda, jasadni ekskumatsiya qilish mumkinligi to'g'risida xulosa beradi.

4. QABRISTONLARDAN FOYDALANISH VA ULARNI SAQLASH

4.1. Qabriston hududi muntazam ravishda tozalanib turilishi, axlat va xazonlardan kuzda, qordan esa qishda tozalanishi lozim. Yoz faslida qabriston hududi har kuni sug'orilishi kerak. Yo'llar, o'tish joylari va boshqa qoplamalar, shuningdek, qabrlar o'z vaqtida ta'mirlanishi va tartibda saqlanishi shart. Ko'kalamzorlar o'z vaqtida siyraklashtirilishi (kuchli soya tushishiga yo'l qo'ymaslik uchun), butab turilishi va yaxshi holatda saqlanishi lozim.

4.2. Katta qabristonlar hududida ochiq suv manbalaridan (daryolar, ko'llar) va yopiq suv manbalaridan (artezian quduqlar) suv oladigan sug'orish suv ta'minoti tarmoqlarini o'rnatish tavsiya etiladi. Bunda qabristonning har bir sektorida suv olish ustunlari yoki sug'orish jo'mraklari bo'lishi shart.

4.3. Qabriston hududi albatta elektr ta'minoti bilan ta'minlanishi kerak. Havo liniyasi ustunlari yoki chiroqlar orasidagi masofani 40-50 metr qilib belgilash maqsadga muvofiq.

4.4. Qabriston hududida eng ko'p ziyoratchi keladigan kunlarga mo'ljallangan jamoat hojatxonalari bo'lishi shart. Hojatxonalar kanalizatsiya tizimiga ulangan va oqar suv bilan ta'minlangan bo'lishi lozim. Kanalizatsiya bo'lmagan hollarda, to'liq gidroizolyatsiya qilingan (devorlari va tubi) va tozalovchi mashinalar uchun qulay kirish yo'li ta'minlangan chuqur hojatxonalar quriladi. Hojatxonalarni ko'kalamzorlashtirish va tirik to'siqlar bilan yashirish tavsiya etiladi.

4.5. Yopiq yoki faoliyat yuritayotgan qabristonda ikkilamchi dafn etishga (qo'shimcha ko'mishga) tuproqning o'z-o'zini tozalash qobiliyatiga qarab ruxsat berilishi mumkin:

qumli, qumloq va kuchsiz loyli tuproqlarda oxirgi dafn etishdan keyin kamida 10 yil o'tgach;

loyli, botqoq va nam tuproqlarda oxirgi dafn etishdan keyin kamida 15 yil o'tgach.

Yopiq qabristondan ikkilamchi dafn etish uchun foydalanish Davlat sanitariya-epidemiologiya nazorati markazining mahalliy organlari bilan kelishilgan bo'lishi shart.

4.6. Qabriston yopilganidan so'ng, yer qatlami, dafn etish hududidagi barcha qabr usti yodgorliklari, obodonlashtirish unsurlari, yo'llar, to'siqlar, binolar va inshootlar qabriston tugatilgunga qadar to'liq daxlsiz holda saqlanadi, shuningdek, qabristonni saqlash bo'yicha xizmat ko'rsatuvchi xodimlar ham o'z vazifalarini davom ettiradilar. Tugatilishi rejalashtirilgan yopiq qabristonlarda dafn etish va qo'shimcha ko'mish taqiqlanadi.

4.7. Qabriston muddati tugagach (yopilganidan 20 yil o'tgach), tugatilayotgan qabriston hududi dam olish maqsadlarida yashil maydon sifatida foydalanilishi lozim. Bunday holatlarda, dafn etilganlarning qoldiqlarini qazib olish shart emas, qabrlar esa qabrtoshlarni olib tashlash va hududni tekislash orqali yo'q qilinadi.

4.8. Faoliyat yuritayotgan qabriston tugatilganda (favqulodda vaziyatlarda), ushbu qoidalariga muvofiq eksqumatsiya va dafn etish bo'yicha barcha talablarga rioya qilgan holda, jasad qoldiqlarini qazib olish va ularni boshqa qabristonga ko'chirish zarur.

4.9. Qabristonlarda belgilangan tartibga rioya qilish bo'yicha chora-tadbirlarni o'tkazish qabriston ma'muriyati zimmasiga yuklatiladi.

4.10. Qabristonlarda belgilangan tartibning ta'minlanishini bevosita nazorat qilish mahalliy davlat hokimiyati organlari va ular vakolat bergan obodonlashtirish boshqarmalari (fuqarolarga xizmat ko'rsatish boshqarmalari) tomonidan amalga oshiriladi.

4.11. Bosh boshqarmalar va boshqarmalar, tumanlar (shaharlar) obodonlashtirish bo'limlari eskirgan (qurigan) daraxtlarni o'z vaqtida kesib tashlashlari, bu orqali ularning yiqilishi va qabr usti yodgorliklariga zarar yetkazishining oldini olishlari, umumiy foydalaniladigan joylarni toza saqlashlari, xiyobonlar bo'ylab maishiy chiqindilar uchun axlat qutilari va yashiklar o'rnatishlari, qabristondan maishiy chiqindilarni belgilangan tartibda o'z vaqtida olib chiqib ketilishini ta'minlashlari shart. Yiliga kamida ikki marta qabristonning butun hududini to'liq tozalash ishlarini amalga oshirishlari lozim.

4.12. Ushbu qoidalarining bajarilishi uchun javobgarlik O'zbekiston Respublikasining 2010-yil 27-dekabrda O'RQ-276-son "Dafn etish va dafn ishi to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2009-yil 9-martdagi 59-son va 2011-yil 4-apreldagi 101-son qarorlariga muvofiq shahar va tuman obodonlashtirish boshqarmalari huzurida fuqarolarga xizmat ko'rsatish xizmatlari (byurolari)ni tashkil etadigan mahalliy davlat hokimiyati organlari zimmasiga yuklanadi. <1>4.12.